

## ОМОН МАТЖОН SHE'RIYATIDA ARXAIZM

*Samarqand davlat universititi*  
*Abduqodirova Durdona Anvar qizi*  
*4-kurs talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Omon Matjon she'rlarida qo'llagan arxaizmlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan bo'lib, shoirning bunday birliklardan mohirlik bilan foydalana bilishi, shuningdek, badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini ta'minlash, she'r badiiyatini kuchaytirish kabi maqsadlarda qadimgi so'zlarni qo'llash usuli tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** Omon Matjon she'riyati lingvopoetikasi, eskirgan so'zlar, arxaizmlar, she'riyat tili.

Omon Matjon she'riyati tilining leksik birliklari ichida o'ziga xos o'rin egallovchi arxaizmlar haqida so'z yuritimiz.

Yunoncha "qadim", "qadimgi" degan ma'nolarni bildirib, hozirgi umumxalq tilida ishlatilmaydigan va eskirib qolgan so'z hamda iboralar arxaizmlardir. Ulus, bitik, ochun kabi qator so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tiliga nisbatan arxaik so'zlar sanaladi. Ammo badiiy matnlarda qahramon tilini tipiklashtirish, tasvirlanayotgan voqea, ro'y bergan joy va tarixiy voqelikka mos ifodalar ishlatish talab etilganda adiblar arxaik so'z va iboralarga murojaat etadilar. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida xolislikka erishish uchun ayni matn tili umumxalq tiliga, shuningdek, adabiy tilga qiyosan baholanishi kerak. Badiiy matnda tasvirlangan davrni, badiiy matn yaratilgan davrni, bu davrdagi adabiy til me'yorlarini bilmasdan turib, eskirgan (arxaizm va istorizm) yoki yangi so'z (neologizm) ni ajratib ham, bunday so'zlarning lingvopoetik qimmatini belgilab ham bo'lmaydi. Ayrim arxaizmlar zamonaviy ma'nodoshiga qaraganda ma'noni kuchliroq ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, yo'qsil – kambag'al arxaik va zamonaviy so'zlar juftligiga e'tibor beradigan bo'lsak, "hech narsaga ega emaslik" ma'nosi yo'qsil leksemasida kambag'al leksemasiga qaraganda ancha ortiq, chunki mazkur so'zlar tarkibi tarixiy-etimologik tahlil etilganda anglanadigan yo'q va kam so'zlari qiyoslansa, birinchisida ayni belgining nol darajada ekanligi seziladi. Arxaik so'zlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda yoki qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda ham lingvopoetik vosita sifatida ishlatiladi. She'riyatda nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlash maqsadida ishlatiladi.

N.Ivanova poeziya tilining shu xususiyatini adabiy til bilan solishtirib, adabiy til uchun arxaik hisoblangan ko'pgina leksik vositalar poetik nutqda stilistik vazifa bajarishini ta'kidlab o'tadi. Shu xususiyatiga ko'ra E.Kurilovich poeziya tilini

arxaiklikka moyil til deb izohlaydi. Poeziya tilida uchraydigan adabiy til nuqtai nazaridan eskirgan hisoblangan bir qator leksik vositalar hozirgi kunda mavjud tushunchalarni ifodalaganidek, poeziya tilida aktivligi ham kuzatiladi. Quyidagi misollar orqali buni his qilish mumkin:

Urush soʻzi oʻrnida savash arxaizmi qoʻllangan:

Qisinchoq el bilan savash boshlayman.

Nozik soʻzi oʻrnida inja leksemasi qoʻllanadi:

Shoirda yoʻl boʻlsin, kechikdi shoir

bu inja raqobat, nurli taloshga:

Ha, bizga yumush qolmabdi endi

Sizni juda qattiq sevishdan boshqa!

Maqsad soʻzi oʻrnida uning kom arxaizmi ishlatilgan:

Avf et, hislari oliy komga band,

Eriy inʼomlardan bexabar jonni!

Ilon soʻzi oʻrnida mor arxaizmi qoʻllangan:

Zahar aralashgan shakar zahardir,

Morga qoʻngan pashsha teng gʻanim bilan.

Dunyo leksemasi oʻrnida ochun soʻzi beriladi:

Balki Atlantida – ettinchi qitʼa

Shu joyda yoʻq boʻlib ketgan ochundan.

Roh arxaizmi yoʻl leksemasi oʻrnida qoʻllangan:

Borar rohin aytmayman.

Olmoshlarning arxaik variantlari ham ishlatilgan:

Ilinj shul: koʻr taqdir ajratsa hamki...

Astronomiya oʻrniga uning arxaik varianti falakiyot qoʻllangan:

Axir bu falakiyot

Harakat-ku, misli oʻq.

Xona soʻzi oʻrnida hujra arxaizmi ishlatilgan:

Bul jahon tun birla tong bahs etar bir hujrakim...

Z.Doʻsimov fikricha “Xevaqa soʻzidagi” “-aq” kichraytirish maʼnosini bildiruvchi qoʻshimchadir. Qalʼajiq (kichik kalʼa), Indavak, Pitnak kabi Xevak ham kichik qalʼa maʼnosini bildirishi ehtimoldan xoli emas, – deydi. Komil Nurjonovning yozishicha, yer yuzining 25 nuqtasida “Xi” yoki “Xe” oʻzagi bilan boshlanuvchi joy, daryo, orol, shaharcha, togʻ va suv manbalarining nomlari qayd etilgan. Omon Matjon Xevaqa soʻzining juda kam ishlatiladigan Xivoqa variantini qoʻllaydi. “Qalam”, “yozuv”, “asar”, “ijod” maʼnolarini anglatuvchi xoma soʻzi shoir ijodida qalam maʼnosida ishlatilganiga guvoh boʻlamiz:

Qalbingizga boqing: yurtning tabarruk

Udummlari butmi, ilgʻarmi xoma?!

“Cho‘l”, “biyobon”, “dasht” ma’nosidagi biyobon so‘zi shoirning bir she’rida yobon shaklida o‘ziga xos tarzda qo‘llanadi. Bu leksema hozirgi Xorazm shevalarida kam qo‘llanuvchi arxaizm bo‘lib, ko‘pincha “qishloq”, “chekka hudud” ma’nosini ham anglatadi. Yobonli so‘zi esa qishloqlik ma’nosida qo‘llanadi.

Mana daftarlarim – nursiz, surursiz.

Kishki dalalardek yaltiroq yobon.

Aslida biyobon so‘zi tojikcha ot “cho‘l”, “suvsiz er” ma’nosini anglatadi. Bu ot bilan o‘zbek tilida cho‘l-biyobon juft oti tuzilgan. Budagov lug‘atida “p., tur.” ta’kidi bilan keltirilib, “cho‘l” ma’nosini anglatishiyatilgan. Demak, biyobon tojikcha bivayobon qismlaridan tuzilgan bo‘lib, bi qismi “yaqin” ma’nosini ifodalaydigan old ko‘makchiga teng; shunga ko‘ra asli “cho‘lning o‘zi”, “cho‘ldan farq qilmaydigan yer” ma’nosini anglatadi. Alisher Navoiy asarlarida ham biyobon shaklida ishlatiladi:

Biyobon qat’ etib manzil-bamanzil,

Anga tegruki aytib erdi komil. (Farhod va SHirin)

Demak Omon Matjon biyobon so‘zining qadimgi yobon varianti Xorazm shevalarida saqlanib qolganini yaxshi ilg‘agan qo‘llagan. Shoirning bir she’rida bashar so‘zi “bashariyat”, “insoniyat” ma’nosida ishlatilganini ko‘ramiz:

Bizdan mujda kutib turganda bashar,

Nahot qo‘l bermog‘ing shu qadar qiyin!

Bashar leksemasi arabcha basar(un) shakliga ega bo‘lib, “yaxshilik voqe bo‘lishini sezdi”, “sevindi” ma’nosini anglatuvchi basara fe’lidan hosil qilingan I bob masdari bo‘lib “inson”, “odam” ma’nosini anglatadi.

Imdod arxaizmi “madad berish”, “yordamlashish” ma’nosida ishlatilgan: Sas berdi ul: “Holim zabun, keldingmu imdod ustina. Imdod arabcha imdād(un) shakliga ega so‘z bo‘lib, o‘zbek tiliga kasrali hamzani i tovushiga, cho‘ziq ā unlisini āunlisiga almashgirib qabul qilingan: imdād– imdad (imdod); asli ko‘p ma’noli madda fe’lining “yordamlashdi”, “qo‘llab-quvvatladi” ma’nosini anglatuvchi IV bob shakli amadda so‘zidan hosil qilingan masdar bo‘lib “ko‘maklashish”, “madad berish” ma’nosini anglatadi.

Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi. “Ogahiy g‘azaliga muxammasi muloqot” nomli muxammasida shoir eski o‘zbek tiliga xos bir qancha so‘zlarni qo‘llaydi. Bu leksemalar hozirgi o‘zbek tili uchun arxaizmlar hisoblanadi. Jumladan: “Ey pir, dedim, yodlar bugun ash’orlaringni Xorazm...” parchasida she’r so‘zi o‘rnida ash’or leksemasi ishlatilgan. Bu o‘rinda ko‘plik shaklini qo‘llash bilan bog‘liq tautologiya ham mavjud. “Suhbat falak mavzusiga ko‘chgaymi, deb solsam nazar” misrasi tarkibida osmon so‘zi o‘rnida falak arxaizmi ishlatilgan. Quyidagi she’riy parchada dushman so‘zi o‘rnida yov, o‘q so‘zi o‘rnida tiyr arxaizmlari qo‘llangan:

Topmasang adashsang, to‘xtasang,

Boq, yovlar tiyrlar otarlar.

O‘qlarning ildizidan qarasang,

Ko‘zlaring qalbimni toparlar.

Tubandagi parchada qadah, ryumka leksemasini ishlatmasdan, uning arxaik varianti jom so‘ziga murojaat qiladi:

Yangi yil jomini ko‘tarib, deyman:

Ko‘kka do‘st tutinsin har ko‘ngil, har dil.

Jom asli “mis” ma’nosini anglatgan bo‘lib, avvallari “misdan yasalgan idish” ma’nosini, so‘ngra “katta hajmli qadah” ma’nosini anglatga boshlagan. Chunki qadahlar ham oltin, kumush, mis kabi metallardan yasalgan. Omon Matjonning jom so‘zini ishlatishi she’r mazmuniga ko‘tarinkilik, ulug‘vorlik, tarixiylik ruhini bera olgan. Omon Matjon she’riyatida Somon yo‘li kosmonimining forscha Kakhkashon arxaik varianti ham qo‘llangan.

Quyosh undan yog‘du olar,

Ufq olar Kakhkashon.

Kakhkashon so‘zi fors tilida kah – «somon», kashon – «tortuvchi» so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan «somon tortuvchi» ma’nosini beruvchi so‘zdir. Bu nom o‘zbek tilidagi Somon yo‘li kosmonimi bilan ma’no jihatdan mushtarak hisoblanadi. Kakhkashon galaktika nomi bo‘lganidan foydalanib shoir ushbu leksema orqali ajoyib obraz yarata olgan:

Elga haq yo‘llari torligin ko‘rib,

Alisher hayqirsa – yondi Kakhkashon:

“Kim bu gulistonkim erur bir jahon,

Balki jahone gul ichida nihon”.

Somon yo‘li yoki Kakhkashon deyilishiga sabab – asotir va afsonalarga qaraganda, shu yo‘l orqali tashilgan somon to‘kilib qolib oqish rang – somon rangini hosil qilgan va shu nom bilan atala boshlagan. Ruslar Somon yo‘lini Млечный put, ya’ni Sut yo‘li deb atashadi. Rus mifologiyasida oqarib turgan samodagi yo‘lsimon chiziq Sut yo‘lideb nomlangan. Shoir she’rlarida ko‘p o‘rinda Kakhkashon so‘zi ishlatilsa, ayrim she’rlarida hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi Somon yo‘li nomini qo‘llab go‘zal misralar yaratgan:

Samovot – bir juldur dasturxon,

Somon yo‘li unda qand yuqi.

Shoir she’rlarida “o‘tmish”, “tarix” ma’nosida moziy so‘zi ko‘p ishlatilgan:

Ko‘p qiziqdir ko‘hna moziy taqdiri

Ko‘p qiziqdir unda xalqlar taqdiri.

Ganj leksemasi “sig‘”, “saqlan” ma’nosini anglatadigan fors-tojikcha ganjidan felining ganj hozirgi zamon asosiga teng bo‘lib, asli “jamlangan narsalar”

ma'nosini anglatadi; keyinchalik “qimmatbahonarsalar jamlab saklanadigan joy”, “xazina” ma'nosini anglatadi boshlagan. Shoir she'rlarida xazina leksemasiga nisbatan uning arxaik varianti ganj faol ishlatiladi:

Dono debdi: “Yurtga bir boq oqsoqol,  
Unda hali o'zi bilmas zo'r ganj bor!  
Yerr osti, yer ustini ganj etding, lekin

Aytishga qo'ymading eng muhim so'zni? O'tmishda fransuz xalqi, ba'zi hollarda evropaliklar farang so'zi orqali ifodalangan. Farang leksemasi frank so'zi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'zbek tilida shakllangan farang ro'mol, ustasi farang birliklarini shoir mahorat bilan ishlatadi:

Farang ro'mol qoshinda.  
Kim chizar shunday zotni,  
Qaysi ustasi farang?

“Ustasi farang” iborasi tor ma'noda fransuz, ya'ni fransiyalik fuqaroni anglatadi, keng ma'noda barcha yevropaliklarga nisbatan ishlatilgan. Demak, o'zbeklar fransuzlarni uddaburon va tadbirkor, har sohada mohir ishbiarmon, hunarmand deb bilganlar. Bu ibora so'nggi o'rta asrlar va yangi davrda paydo bo'lgan. “Qutadg'u bilig” asarida o'tru leksemasi “so'ngra”, “keyin” ma'nolarini ifodalagan:

Kishi o'granib o'tru bilga bo'lur, Bilig bilsa o'tru qamug' ish, o'nur.

Navoiy asarlarida o'tru so'zi “qarshisida”, “yonida” kabi ma'nolarni ifodalaydi. Omon Matjon she'riyatida ham shunday ma'noda ishlatilgan:

Shunday qilib oxiri  
Muhlatlar ham bitibdi!  
Kelib shoh o'trusida  
U mo'yqalam tutibdi.  
Yo eling yulduzlarin sev, yo o'zing yulduzliq et,  
O'truda orzu to'la ko'zlarni ko'rgan baxtlidir.

Umuman, Omon Matjon she'riyati tilida uchraydigan adabiy til nuqtai nazaridan arxaik hisoblangan bir qator leksik vositalar hozirgi kunda mavjud tushunchalarni ifodalashi bilan birga, davr ruhini aks ettirishi, ko'tarinkilik, ulug'vorlikni ta'minlashi kabi maqsadlarda ijodkor tomonidan poetik aktivlashtirilgan til birliklaridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – T. 2. – №. 12. – C. 4-7.

2. Саидов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.

3. Саидов А. pedagogik mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2

4. Sharifjon To'lqin o'g A. et al. TA'LIM-TARBIYA TIZIMI VA O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 57-60.

5. Саидов А. СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. Special issue. – С. 262-266.

6. Саидов А., Джураев Р. Воспитание гармоничного поколения–роль спорта в формировании здорового образа жизни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.

#### Фойдаланилган вeb-сайтлар

[www.ziyo.uz.kutubxona](http://www.ziyo.uz.kutubxona).

[www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz).

h

h

t

p

p

w

w

w

y

g

o

g

g

t

e

oom

m

url